

SHAXSIY HUQUQLARNI TA'MINLASHDA KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLAR

Tohirova Malikabonu Umidovna

E-mail: tohirovamalikabonu8@gmail.com

Buxoro davlat universiteti "Tarix va yuridik" fakulteti

5-2 YURS 25 guruh 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada shaxsiy huquqlarning huquqiy mohiyati, ularni ta'minlashda konstitutsiyaviy kafolatlarning nazariy va amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalari asosida shaxsiy huquqlarning kafolatlanishi, ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, shaxsiy huquqlarni himoya qilishda sud hokimiyati va boshqa vakolatli organlarning roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar

Shaxsiy huquqlar, Konstitutsiya, konstitutsiyaviy kafolatlar, inson huquqlari, huquqiy davlat, shaxsiy daxlsizlik.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida inson huquqlarini, xususan shaxsiy huquqlarni ishonchli himoya qilish masalasi har bir davlat uchun dolzarb hisoblanadi. Shaxsiy huquqlar insonning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy huquqlar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu huquqlarning real hayotda ta'minlanishi bevosita Konstitutsiya va uning kafolatlariga bog'liqdir. Konstitutsiya shaxsiy huquqlarni oliy ijtimoiy qadriyat sifatida belgilab, ularni davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlaydi [1]. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi VII bob insonning shaxsiy huquqlariga bag'ishlangan bo'lib, unda inson va fuqarolarning shaxs sifatida rivojlanishi uchun zaruriy shaxsiy erkinliklar majmuasi berilgan. Shaxsiy huquqlar majmuasi inson huquqlari fanida bevosita tabiiy huquqlar bilan bog'liq

boʻlgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham avvalo, qisqacha boʻlsa ham tabiiy huquqlar va ularning inson shaxsiy huquqlaridagi ahamiyati haqida soʻz yuritsak. Tabiiy huquq – davlat va huquq nazariyasida inson tabiatidan kelib chiquvchi va shu tufayli muayyan davlatning qonunlari orqali tan olishiga yoki tan olmasligiga boʻgʻliq boʻlmagan prinsiplar, qoidalar, huquq va qadriyatlar majmuasini bildiruvchi tushuncha. Tabiiy huquqning asosiy mazmunini huquqning obʼyektiv belgilaridan, xossalaridan tashqari, fuqarolarning ijtimoiy tizimda teng huquqliligi, ularning erki va mustaqilligi va boshqa turli xil axloqiy, diniy, falsafiy va hokazo qarashlar ham tashkil etadi. Tabiiy huquq konsepsiyasiga koʻra, inson borligʻi, uning ruhiy va maʼnaviy jihatlariga uning “tugʻma, tabiiy tengligi va erkinligiga” eʼtibor bermoq lozim boʻladi. Tabiiy huquq konsepsiyasining mohiyatini B.S.Nersensyans quyidagicha baholaydi: “Tabiiyhuquqiy yondoshuvning jiddiy kamchiligi huquq falsafasining asosiy muammosini – huquqdagi mohiyat va hodisani farqlash va ularning nisbatini notoʻgʻri talqin qilishdan iboratdir”. Rimlik huquqshunoslar tabiiy huquqni aqmalijahatdan tushunishgan, uning namoyon boʻlishinin nikohda, bola tugʻilishi, tarbiyada koʻrishgan. Tabiiy huquq konsepsiyasini XVIII asrda faransuz maʼrifatparvarlari - J.J.Russo, Sh.L.Monteskʻye, D.Didro, M.F.Volter va boshqalar rivojlantirgan. Ushbu konsepsiya insonning tabiiy holatiga, ijtimoiy kelishuvga asoslangan va tabiiy huquqning oʻzgarmasliginin taqozo qiladi. U ideal huquq sifatida namoyon boʻladi va inson tabiati bilan shartlangan. Falsafiy konsepsiyalar ichida tabiiy huquqning harakat doirasi kengayib bormoqda, ammo uning yadrosi masalan, yashash huquqi, erkinlik huquqi, mulk huquqi oʻzgarmay qolmoqda. [2] Bugungi kunda esa shaxsiy huquqlar muhim xalqaro va milliy huquqning ajralmas qismi sifatida qoraladi. Insonning baxtli va erkin hayot kechirishi uchun eng zaruriy huquqlar majmuni boʻlib xizmat qiladi.

Asosiy qism

Shaxsiy huquqlar — bu shaxsning tugʻilgan paytidan boshlab unga tegishli boʻlgan, ajralmas va begonalashtirilmaydigan huquqlardir. Ular insonning erkin rivojlanishi va jamiyatda toʻlaqonli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shaxsiy huquqlar tizimiga yashash huquqi, shaxsiy erkinlik va daxlsizlik,

sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, shaxsiy hayot va turar joy daxlsizligi kiradi Konstitutsiyaviy kafolatlarning mazmuni va ahamiyati haqida to'xtalsak Konstitutsiyaviy kafolatlar shaxsiy huquqlarni amalga oshirish va ularni buzilishidan himoya qilishga qaratilgan huquqiy vositalar majmuasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsiy huquqlarning daxlsizligi mustahkamlanib, ularni cheklash faqat qonun asosida va zarur hollardagina mumkinligi belgilangan [3]. Konstitutsiyaning 25-moddasida: "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanad",— deb belgilangan. Insonning yashash huquqi qonunlar bilan himoya qilinadi. Yashash huquqi hayot kechirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun inson hayotiga har qanday tajovuz qonunga asosan jazolanadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida inson hayotiga qilingan tajovuzlarga jazo belgilangan. Ushbu kafolatlar huquqiy davlatning muhim belgisi hisoblanadi. 26-moddada "Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas" 27-moddada esa "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas" deb belgilangan bo'lib bu qoidalar fuqarolarga erkinlik va daxlsizlikni kafolatlaydi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29- moddasida har kim malakali yuridik yordam olish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Bundan tashqari boshqa ko'plab jihatlar ham ushbu moddada belgilab qoyilgan jumladan: Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat prosessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega. Ushbu band shaxsiy huquq va erkinliklarni ta'minlashdagi yana bir ulkan erkinlik hisoblandi. Advokatlik yordami har bir shaxs va fuqaro shaxsiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi va har bir shaxs bundan huquqdan foydalanish

imkoniyati konstitutsiya tomonidan mustahkamlab qo'yilgani esa konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmning yana bir ulakan yutug'i desak adashmagan bo'lamiz. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish, aybsizligini isbotlash uchun barcha tegishli imkoniyatlar yaratiladi. Ular dalillar taqdim qilishi, suddan guvohlarni chaqirishni va boshqa harakatlar sodir etishni so'rashi mumkin. Shaxsiy huquqlarni ta'minlashda sud hokimiyati, prokuratura, ichki ishlar organlari va Ombudsman instituti muhim o'rin tutadi. Sudlar shaxsiy huquqlar buzilgan taqdirda ularni tiklashning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ombudsman esa inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha parlament nazoratini amalga oshiradi [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Shaxsiy huquqlarni ta'minlash masalasini o'rganishda ularning konstitutsiyaviy kafolatlar bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida analitik va sintez metodlari qo'llanilib, shaxsiy huquqlarning daxlsizligi, qonun oldida tenglik hamda sud orqali himoyalaniş kafolatlari aniqlandi. Shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy yondashuv milliy konstitutsiyaviy normalarni xalqaro inson huquqlari standartlari bilan solishtirish orqali shaxsiy huquqlarni ta'minlashning huquqiy ahamiyatini ochib berdi. Mantiqiy-huquqiy tahlil Konstitutsiyada belgilangan shaxsiy huquqlar va ularni amalga oshirish mexanizmlarining mazmuniy uyg'unligini aniqlashga xizmat qildi. Tizimli yondashuv orqali davlat hokimiyati organlari, sud tizimi hamda inson huquqlarini himoya qiluvchi institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsiy huquqlarni ta'minlash faqat ularning Konstitutsiyada mustahkamlanishi bilangina emas, balki ularni amalda samarali tatbiq etish va himoya qilish mexanizmlari orqali ta'minlanadi. Shu tariqa, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar shaxsiy huquqlarni ta'minlashda konstitutsiyaviy kafolatlarning ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan muhimligini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsiy huquqlarni ta'minlashda konstitutsiyaviy kafolatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ular shaxsning erkinligi,

daxlsizligi va qadr-qimmatini himoya qilishning asosiy huquqiy mexanizmi hisoblanadi. Tadqiqot davomida Konstitutsiyada belgilangan shaxsiy huquqlar bevosita amal qiluvchi huquqiy normalar sifatida mustahkamlanganligi aniqlandi. Bu holat shaxsiy huquqlarni qo'shimcha normativ-huquqiy hujjatlarsiz ham sud orqali himoya qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra, shaxsiy huquqlarni ta'minlashda qonun oldida tenglik tamoyili muhim kafolat sifatida namoyon bo'ladi. Konstitutsiyaviy normalar barcha shaxslarning irqi, millati, jinsi, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, teng huquqliligini ta'minlashga qaratilgan. Bu esa shaxsiy huquqlarning diskriminatsiyasiz amalga oshirilishini ta'minlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sud hokimiyatining mustaqilligi shaxsiy huquqlarni himoya qilishda eng muhim institutsional kafolatlardan biri hisoblanadi. Mustaqil sud tizimi mavjud bo'lgan sharoitda shaxsiy huquqlar buzilgan taqdirda ularni tiklashning samarali mexanizmi shakllanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sud orqali himoya qilish huquqi shaxsiy huquqlarning real ta'minlanishida muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida shaxsiy huquqlarni ta'minlash faqat normativ hujjatlarning mavjudligi bilan cheklanmasligi, balki ularni amalda samarali tatbiq etish mexanizmlarining rivojlangan bo'lishi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Huquqni qo'llash amaliyotida davlat organlari va mansabdor shaxslarning mas'uliyati shaxsiy huquqlarni himoya qilish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shaxsiy huquqlarni ta'minlashda inson huquqlarini himoya qiluvchi institutlar, xususan, Ombudsman institutining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatdi. Ushbu institut fuqarolarning buzilgan shaxsiy huquqlarini tiklashda muhim vositachi bo'lib xizmat qiladi hamda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

Umuman olganda, olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, shaxsiy huquqlarni ta'minlashda konstitutsiyaviy kafolatlar tizimli, uzviy va o'zaro bog'liq mexanizmlar majmuasini tashkil etadi. Ularning samarali ishlashi huquqiy davlat va adolatli jamiyat barpo etishning muhim sharti hisoblanadi.

Muhokama

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda shaxsiy huquqlarni ta'minlashda huquqni qo'llash bilan bog'liq muammolar mavjud. Xususan, fuqarolarning huquqiy ongi yetarli darajada shakllanmaganligi huquqlarning to'liq amalga oshishiga to'sqinlik qilmoqda [5]. Shu bois huquqiy madaniyatni oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Muhokama jarayonida olingan natijalar shaxsiy huquqlarni ta'minlash masalasini konstitutsiyaviy kafolatlar nuqtai nazaridan yanada chuqurroq talqin qilish imkonini berdi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, siyosiy va huquqiy tizimlarning barqarorligi, avvalo, shaxsning asosiy huquq va erkinliklari qanchalik ishonchli va samarali ta'minlanishiga bevosita bog'liqdir. Shu ma'noda, shaxsiy huquqlar huquqiy davlatning asosiy poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat World Justice Project (WJP) tomonidan ishlab chiqiladigan Rule of Law Index ko'rsatkichlarida ham tasdiqlanib, unda shaxsiy huquqlar va sud mustaqilligi qonun ustuvorligining asosiy mezonlari sifatida baholanadi [6]. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi shaxsning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etib, ularni himoya qilishni davlatning ustuvor vazifasi etib belgilaydi. Bu holat shaxsiy huquqlarni ta'minlashda konstitutsiyaviy kafolatlarning kuchaytirilganini ko'rsatadi. Davlat institutlari va qonunchilik tizimining inson manfaatlariga moslashuvi jamiyatda huquqiy barqarorlik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi. Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsiy huquqlarni himoya qilishga qaratilgan huquqiy tizimlar statik holatda qolmaydi, balki jamiyatning rivojlanish ehtiyojlari va shaxs manfaatlari bilan uyg'un holda doimiy ravishda takomillashib boradi. Bu esa konstitutsiyaviy kafolatlarning samaradorligini oshirish uchun huquqni qo'llash amaliyotini muntazam ravishda yangilab borishni taqozo etadi. Shu bilan birga, shaxsiy huquqlarning amalda ta'minlanishi faqat Konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan normalar bilan cheklanmasligi aniqlandi. Bu jarayon davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquqiy tamoyillarga sodiqligi, sud hokimiyatining mustaqilligi hamda fuqarolarning o'z huquqlaridan xabardorligi bilan

chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, huquqiy madaniyatning rivojlanishi shaxsiy huquqlarni samarali himoya qilishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy huquqlarni ta‘minlashda konstitutsiyaviy kafolatlar huquqiy davlat barpo etishning ajralmas qismi hisoblanadi. Konstitutsiya shaxsiy huquqlarning mustahkam huquqiy poydevorini yaratib, ularni davlat tomonidan ishonchli himoya qilinishini ta‘minlaydi. Shaxsiy huquqlarni ta‘minlashda konstitutsiyaviy kafolatlar huquqiy davlat barpo etishning asosiy poydevori sifatida namoyon bo‘ladi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi shaxsning hayoti, erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilishni davlatning ustuvor vazifasi etib belgilaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, konstitutsiyaviy kafolatlarining samaradorligi sud mustaqilligi, davlat organlarining mas‘uliyati va fuqarolarning huquqiy madaniyati bilan bevosita bog‘liq. Shaxsiy huquqlarning amalda himoyasi nafaqat normativ hujjatlar mavjudligi, balki ularni tatbiq etish mexanizmlari orqali ta‘minlanadi. Milliy va xalqaro huquqiy normalarning uyg‘unlashuvi shaxsiy huquqlarni universal qadriyat sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, konstitutsiyaviy kafolatlar shaxsiy huquqlarni nafaqat himoya qiladi, balki ularning doimiy rivojlanishi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent, 2023.
2. <https://share.google/tzwuo86YMfOPY9VsZ>
3. Saidov A.X. Inson huquqlari. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) to‘g‘risidagi Qonun.
5. Boboyev H.T. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati. — Toshkent, 2019.
6. World Justice Project. *Rule of Law Index 2024*. — Washington, D.C., 2024.